

DAVLAT VA XUSUSIY SEKTORDA KOMPLAENS NAZORAT TIZIMINI JORIY ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI

O'roqov Abbosxon Nuroli o'g'li

Qibray tumani Adliya bo'limi mas'ul xodimi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kunida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"¹.

Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilikning asosiy huquqiy manbai xalqaro hujjatlar hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga 2003-yil 31-oktyabrda qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi, 1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyasi, 1999-yil 4-noyabrdagi "Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyalari va boshqalarni kiritish mumkin. Bu qonun hujjatlari xususida keyingi bobda xorijiy tajriba sifatida ko'rib chiqamiz.

Davlat va xususiy sektorda komplaens nazorat tizimini joriy etishning huquqiy asoslarini qator milliy qonun va qonun osti hujjatlarda o'z ifodasini topgan, ularga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Birlashgan Millatlar

¹ Interner manba: nti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kunida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi <https://president.uz/oz/lists/view/4057>.

Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 19-iyuldagi 158-sonli qonuni, "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-177-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i va boshqalarni kiritish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy bazasi 100 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ifodalanadi, ularni uch turga bo'lish mumkin:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy qoidalarni o'z ichiga olgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Milliy xavfsizlik konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida", "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida" va boshqalar).

2. Korrupsiyaga qarshi bevosita kurashishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ("Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida", "Jinoyatdan olingan

daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori va boshqalar).

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga ham taalluqli qonunchilikning turdosh sohalarining me'yoriy-huquqiy hujjatlari ("Sudlar to'g'risida", "Prokuratura to'g'risida", "Ichki ishlar organlari to'g'risida", "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari. me'yoriy-huquqiy hujjatlar", "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida" va boshqalar)².

Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarning har biri turli vositalar yordamida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan

Mazkur hujjatlarda davlat va xususiy sektorda komplaens nazorat tizimini joriy etishning huquqiy asoslari belgilandi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda alohida ahamiyat kasb etadigan mazkur tushuncha dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-sonli "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida qabul qilingan "2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi"ning 21-bandida ustav jamg'armasida davlat ulushi bo'lgan tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish choralari kuchaytirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat tizimini joriy etish va uning samaradorligini tizimli monitoringini amalga oshirish vazifasi belgilandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish komplaens nazorat tizimi aynan shu nom

² "Коррупцияга қарши курашиш ва комплаенс назорат тизимини жорий этиш истиқболлари" мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий конференция материаллари тўплами, Противодействие коррупции в республике узбекистан: Сравнительно-правовой обзор законодательства, Н.С.Салаев.

bilan mazkur hujjatda birinchi marta aks etdi³.

Korrupsiya qonun ustuvorligiga, demokratiya va inson huquqlariga, samarali davlat boshqaruviga tahdid soladi, tenglik va ijtimoiy adolat prinsipini buzadi, demokratik institutlar faoliyati va jamiyatning ahloqiy normalarini izdan chiqaradi. Korrupsiya va poraxo'rlik davlatni ich-ichidan yemirishini jahondagi ba'zi davlatlar misolida ko'rishimiz mumkin. Ayni shu masalada, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) bu illatlarni eng global muammolardan biri sifatida e'tirof etib, ularga qarshi kurashish masalalariga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda. Xususan, BMT 2003-yil 31-oktyabrda "Korrupsiyaga qarshi konvensiya"ni qabul qildi. Uning loyihasni ishlab chiqish uchun ikki yil davomida 130 dan ortiq davlat jalb etilgan edi. Unda korrupsiyaga qarshi xalqaro va milliy kurash amaliyotini yo'lga qo'yish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari aks etgan.

O'zbekiston Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasini 2008-yil 7-iyulda ratifikatsiya qilgan. Unga ko'ra, jinoyatchilikka, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha hamkorlikka oid ikki tomonlama hukumatlararo va idoralararo kelishuvlar tuzilgan va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qabul qilingan xalqaro hujjatlarni tasdiqlagan. Shuning uchun ham O'zbekistonda mazkur illatning sabablarini aniqlash va bartaraf etish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayapti, ushbu toifadagi jinoyatchilarga nisbatan qat'iy choralar ko'rilmogda. Davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslarning korrupsiya domiga tushib qolmasliklari uchun, hukumatimiz uzoq muddatli chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqardi va ularning ijrosi doimiy nazorat qilib kelmoqda.

³2019-yil 27-maydagi PF-5729-sonli "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon <https://lex.uz/docs/-4355387>.

2010-yilda O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakat dasturiga qo'shildi. So'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan Byudjet va Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi, "Elektron hukumat to'g'risida"gi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

2015-yilda tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amaliy harakatlar Kompleks rejasi ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashi kotibi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisining birinchi o'rinbosari va O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan, Favqulodda vaziyatlar vazirining 2015-yil 9-iyundagi 175-sonli buyrug'i ishlab chiqildi va ijro uchun joylarga yetkazildi. Mazkur buyruqda vazirlik markaziy apparati boshqarmalari, mustaqil bo'lim va xizmatlari, shuningdek, hududiy va tarkibiy tuzilmalarga Kompleks rejasida belgilangan tadbirlar yuzasidan aniq vazifalar yuklatilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2015-yil 19-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 186-sonli buyrug'i bilan "Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha komissiya to'g'risida"gi Nizom, Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha komissiya tarkibi, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi, vazirlik

tizimidagi harbiy xizmatchi va ularning odob-axloq qoidalarini tasdiqlangan.

Mazkur xalqaro hujjatlar ijrosini tatbiq etishda iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishchanlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar yaratish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xaridlari mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlashga doir bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Birinchi navbatda, Milliy qonunchiligimizda Yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida korrupsiyaga qarshi kurash sohasida huquqiy asos hisoblanadi. Xususan, Konstitutsiyasining 115-moddasi 10-bandida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta'minlash, ularning faoliyatida korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo'yicha choralar ko'radi, hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma'ruzalarni taqdim etadi, deb belgilangan⁴. Shuningdek, Konstitutsiyaning 93-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi har yilgi milliy ma'ruzani eshitish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatiga kirsam, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini, Oliy sudini, Sudyalar oliy kengashini, respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining rahbarini va respublika

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 30.04.2023-yil, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.

monopoliyaga qarshi organining rahbarini saylash O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining rahbari va respublika monopoliyaga qarshi organining rahbari lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi⁵. Yuqoridagilariga asosan shuni aniq aytishimiz mumkinki, korrupsiyaga qarshi kurashni Konstitutsiyaviy prinsipga aylantirish bu sohada umumxalq darajasida e'tibor qaratilishiga zamin yaratsa, bu kurashni tashkil etishda hokimyatni bo'linish prinsipidan foydalanilganligi yuqori davlat boshqaruvi organlari orasida o'ziga xos kompliens nazoratni yaratgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun imzolandi.

Qonundan ko'zlangan maqsad korrupsiyaga qarsha kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Hujjatda "korrupsiya", "korrupsion huquqbuzarlik" va "manfaatlar to'qnashuvi" kabi tushunchalarga izoh berilgan. Hujjatda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy tamoyillari sifatida qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi; ochiqlik, shaffoflik va tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining o'zaro hamkorligi; korrupsiyadan ogohlantirish va javobgarlikning muqarrarliligi bo'yicha choralar ustuvorligi keltirib o'tilgan. Qonun korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini keltirib o'tadi:

aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish,

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 30.04.2023-yil, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.

jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo'yicha choralarni amalga oshirish;

korrupsion huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ular oqibatlari, sabablari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tadbqiq etish.

Hujjatda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyadan ogohlantirish bo'yicha choralarni keltirib o'tadi. Jumladan, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlash, parlament va jamoatchilik nazorati, mansabdor shaxslar faoliyati sifatini baholash hamda ishga qabul qilish va mansab pillapoyalaridan ko'tarilishda ochiqlik va xolislik tamoyili asosida tanlovli saralashlarni olib borish tizimlarini joriy etish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi.

Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichmabosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

2020–2021-yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida

korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplayens-nazorat”) ni bosqichma-bosqich joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;

korruptsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta’minotni joriy etish.

Xulosa qiladigan bo’lsak, davlat va xususiy sektorda komplaens nazorat tizimini joriy etishning O‘zbekistondagi huquqiy asoslari quyidagicha:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni (2020-yil 3-yanvar). Bu qonunda korruptsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish uchun davlat organlari va xususiy korxonalarda ichki nazorat tizimlarini yaratish majburiyati belgilangan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyuldagi “Komplaens nazoratini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5184-son Qarori. Ushbu qaror komplaens nazorati tizimlarini davlat va xususiy sektorlarda joriy etish, rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgiladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”buyrug‘i.

4. Davlat va xususiy korxonalar uchun qabul qilingan bir qator tarmoq standartlari va yo‘riqnomalari. Masalan, bank sektori uchun belgilangan

komplaens nazorati standartlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Interner manba: nti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kunida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasi <https://president.uz/oz/lists/view/4057>.
2. “Коррупцияга қарши курашиш ва комплаенс назорат тизимини жорий этиш истиқболлари” мавзусидаги халқаро онлайн илмий-амалий конференция материаллари тўплами, Противодействие коррупции в республике узбекистан: Сравнительно-правовой обзор законодательства, Н.С.Салаев.
3. 2019-yil 27-maydagi PF-5729-sonli “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmon <https://lex.uz/docs/-4355387>.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 30.04.2023-yil, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 30.04.2023-yil, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.